



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi

Bosh direktori v.v.b.

I.K.Ergashev

2021 yil

**RESPUBLIKA AGROKIMYOVIY TAHLIL MARKAZI
USTAVI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimidagi Respublika agrokimyoviy tahlil markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) maqomi, asosiy vazifalarini, funksiyalarini, huquqlarini, mas‘uliyatini, faoliyatini va hisobdorligini tashkil etish tartibini, shuningdek, Markaz rahbarlarining funksional majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Markaz davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasida tuproq agrokimyoviy tahlillarini o‘tkazish va qishloq xo‘jaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral va mikrobiologik o‘g‘itlar sifatini tekshirish, tuproq va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsid, nitrat va og‘ir metall tuzlari qoldiqlarini dala sharoitida radiologik-toksikologik tahlillardan o‘tkazish va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda tadbirlar bajarilishini bilvosita nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi.

3. Markaz o‘z faoliyatida O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik)ga bo‘ysunadi.

4. Markaz o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

5. Markaz faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlariga, ushbu Ustavga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Markaz o‘z faoliyatini tegishli davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar hamda xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

7. Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, blankalarga hamda shtampga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida shaxsiy g‘aznachilik hisob varaqalariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan xorijiy valyutadagi bank hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

8. Markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — RESPUBLIKA AGROKIMYOVIY TAHLIL MARKAZI, qisqartmasi — “O‘zagrokimyotahlil” Markazi;

b) ingliz tilida:

to‘liq nomi — REPUBLICAN CENTER FOR AGROCHEMICAL ANALYSIS, qisqartmasi — “Uzagrochemanalysis” Center;

v) rus tilida:

to‘liq nomi — РЕСПУБЛИКАНСКИЙ ЦЕНТР АГРОХИМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА, qisqartmasi — центр “Узагрохиманализ”.

9. Markaz Toshkent viloyati, Qibray tumani, Bobur ko‘chasi, 8-uy manzilida (pochta manzili) joylashgan.

2-bob. Markaz tuzilmasi

10. Markaz tarkibiga quyidagilar kiradi:

markaziy apparat;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Agrokimyoviy tahlil markazlari (keyingi o‘rinlarda — hududiy markazlar);

3-bob. Markaz va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar Agrokimyoviy tahlil markazlarining vazifalari va funksiyalari

1-§ Markazning vazifalari va funksiyalari

11. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) agrokimyoviy tahlil sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, bu boradagi qonunchilikni amalga oshirilishini ta‘minlash, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

2) agrokimyoviy tahlillar bo‘yicha davlat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, agrokimyoviy tahlil infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik jihatdan yangilash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va uning iste‘molchilariga quyidagi agrokimyoviy tahlil xizmatlarini ko‘rsatish:

tuproq agrokimyoviy tahlillari asosida agrokimyoviy xaritanoma ishlab chiqish;

ekin turlari bo‘yicha mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ilmiy talabni ishlab berish;

qishloq xo‘jaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral o‘g‘itlarni standart talabiga javob berishi bo‘yicha laboratoriya tahlil xulosasi berish;

qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibidagi pestitsidlar, nitrat va og‘ir metall tuzlari qoldiq miqdoriga laboratoriya tahlil xulosasi berish;

tuproq va qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibidagi radionuklidlar miqdoriga laboratoriya tahlil xulosasi berish.

3) davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlarni, shuningdek, barcha yerdan foydalanuvchilarni tuproq-o'simlik-o'g'it tamoyili asosida agrokimyoviy tahlillar ma'lumotlari bilan ta'minlash;

4) mineral o'g'itlar ilmiy talabini shakllantirish va ularni qishloq xo'jalik ekinlariga tabaqalashtirilgan holda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda barcha turdagi mineral o'g'itlarning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va xulosalar berish;

5) qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llaniladigan o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini tuproq va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi qoldiq miqdorlarini toksikologik tahlillaridan o'tkazish va xulosalar berish;

6) nazorat va signal dalalarida radiologik-toksikologik kuzatuv hamda tahlil ishlarini olib borish va xulosalar berish;

7) tuproq, mineral o'g'it hamda radiologik va toksikologik laboratoriya tahlillari bo'yicha yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

8) laboratoriyalarni xalqaro standart talablariga moslashtirish;

9) akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda agrokimyoviy tahlillar olib borish;

10) tuproqning oziqa moddalari bilan ta'minlangan darajasini monitoring qilish va oshirish, yangi turdagi mineral o'g'itlarni qo'llash tizimini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifat ko'rsatkichlaridagi agrokimyoviy tahlil yo'nalishlarini tadqiq etish sohalarida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;

11) kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirishning samarali tizimini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich takomillashtirish, agrokimyoviy tahlil sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

12) agrokimyoviy tahlil sohasida ilg'or texnologiyalarni takomillashtirish va joriy etish, shuningdek, tajriba almashish va kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

13) agrokimyoviy tahlil faoliyatini keng targ'ib qilish va aholi xabardorligini oshirish.

12. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) Agrokimyoviy tahlil sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, bu boradagi qonunchilik amalga oshirilishini ta'minlash, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

Agentlikka agrokimyoviy tahlil sohasidagi yagona davlat siyosatini yuritishga qaratilgan takliflarni, agrokimyoviy tahlil to'g'risidagi hujjatlarni yanada

takomillashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar va agrokimyoviy tahlil sohasiga oid davlat dasturlarining loyihalarini ko'rib chiqish uchun kiritadi;

o'z vakolati doirasida buyruqlar chiqaradi, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi majburiy bo'lgan yo'riqnomalar va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Agentlikka taqdim etadi;

respublika hududida agrokimyoviy tahlil bo'yicha tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha bilvosita davlat nazoratini amalga oshiradi;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi xalqaro talablar va boshqa davlatlar bilan tuzilgan bitimlardan kelib chiqadigan tadbirlar o'tkazilishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha faoliyatini belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi.

2) Agrokimyoviy tahlillar bo'yicha davlat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, agrokimyoviy tahlil infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik jihatdan yangilash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va uning iste'molchilariga agrokimyoviy tahlil xizmatlarini ko'rsatish sohasida:

agrokimyoviy tahlil sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha Agentlikka takliflar kiritadi;

o'z vakolatlari doirasida tuproq-o'simlik-o'g'it tamoyili asosida kuzatuvlar, agrokimyoviy tahlil ma'lumotlarini, shuningdek, tuproqning oziqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ularga ishlov berish, ularni tahlil qilish va tarqatish tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishni ta'minlaydi;

o'z vakolati doirasida agrokimyoviy tahlil faoliyatini tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va Agentlikka kiritadi;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi davlat standartlari va texnik reglamentlarni ko'rib chiqadi va takomillashtiradi;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi milliy va xorijiy standartlarni uyg'unlashtiradi;

agrokimyoviy tahlil xizmatlari ko'rsatishda kuzatuv va tahlil ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish tizimini ishlab chiqadi va takomillashtirib boradi;

sug'oriladigan ekin yerlari tuproqlarning agrokimyoviy tahlillari asosida agrokimyoviy xaritanomalar tayyorlaydi va ekin turlariga mos ravishda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabni ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral o'g'itlar sifatini (donadorligi, namligi va ta'sir etuvchi moddasi) laboratoriya tahlillardan o'tkazib boradi va tegishli xulosalar beradi;

qishloq xo'jalik mahsulotlari hosilidan dala sharoitida namuna olib, tarkibidagi pestitsidlar, nitrat va og'ir metall tuzlari qoldiq miqdoriga laboratoriya tahlil xulosasi beradi;

tuproq va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi radionuklidlar (Stronsiy va seziiy) miqdorini laboratoriya tahlillaridan o'tkazadi va xulosalar beradi.

3) Davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlarni, shuningdek, barcha yerdan foydalanuvchilarni tuproq-o'simlik-o'g'it tamoyili asosida agrokimyoviy tahlillar ma'lumotlari bilan ta'minlash sohasida:

qishloq xo'jaligi sohasiga agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatadi;

yerdan foydalanuvchilarga muntazam ravishda, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tuproqning agrokimyoviy holati va mineral o'g'itlardan ilmiy talab asosida tabaqalashtirilgan holda foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi nitrat, pestitsidlar, og'ir metall tuzlarining ruxsat etilgan miqdorlari hamda ularga qo'yiladigan xalqaro standart talablari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib beradi;

tuproqning agrokimyoviy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar fondini, jumladan agrokimyoviy xaritanomalarning elektron bazasini shakllantiradi va yangilab boradi, arxiv fondiga kiritilgan arxiv hujjatlarini doimiy saqlaydi.

4) Mineral o'g'itlar ilmiy talabini shakllantirish va ularni qishloq xo'jaligi ekinlariga tabaqalashtirilgan holda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda barcha turdagi mineral o'g'itlarning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va xulosalar berish sohasida:

yerdan foydalanuvchilarga xar bir kontur kesimida ekin turiga mos ravishda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabni ishlab chiqadi va tuman, viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimida shakllantiradi;

mineral o'g'itlardan tuproqning agrokimyoviy holatiga mos ravishda tabaqalashtirilgan holda foydalanishning optimal muddatlari va miqdorlari bo'yicha barcha qishloq xo'jaligi korxonalari hamda aholi tomorqalari uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligiga yetkazib beriladigan mahalliy va import qilinayotgan barcha turdagi mineral o'g'itlar sifatini doimiy tahlil qiladi, sifat ko'rsatkichlari talabiga javob bermaydigan o'g'itlarni foydalanishdan chiqarish yuzasidan Agentlikka axborot kiritadi.

5) Qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llaniladigan o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini tuproq va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi qoldiq miqdorlarini toksikologik tahlillaridan o'tkazish va xulosalar berish sohasida:

qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llanilgan azotli o'g'itlar ta'sirida yetishtirilgan mahsulot tarkibida shakllanadigan nitrat miqdorini laboratoriya tahlillaridan o'tkazadi va tegishli xulosalar beradi;

qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llanilgan kimyoviy vositalar ta'sirida mahsulot tarkibidagi pestitsidlar va og'ir metall tuzlari qoldiq miqdorlarini laboratoriya tahlillaridan

o'tkazadi hamda iste'molga, qayta ishlashga va eksportga chiqarish bo'yicha tegishli xulosalar beradi;

organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan dalalar uchun tuproqdagi pestitsidlar va og'ir metall tuzlari bilan iflosalanish darajasini tahlil qiladi va xulosalar beradi.

6) Nazorat va signal dalalarida radiologik-toksikologik kuzatuv hamda nazorat ishlarini olib borishni tashkil qilish va xulosalar berish sohasida:

kuzatuv nazorat maydonlarida tuproq va qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibidagi "Stronsiy-90" va "Seziy-137" sun'iy radionuklidlar qoldiqlari bo'yicha kuzatuv ishlarini olib boradi;

statsionar signal dalalarda tuproq va o'simlik mahsulotlarida turg'unlik darajasi yuqori bo'lgan xlororganik pestitsid (DDT, DDE, GXSG) qoldiqlariga toksikologik kuzatuv ishlarini bajaradi;

nazorat va signal dalalarida tuproq va o'simliklarda aniqlangan zararlanish holatlarini kamaytirish hamda bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqadi.

7) Tuproqning oziqa moddalari bilan ta'minlangan darajasini monitoring qilish va oshirish, yangi turdagi mineral o'g'itlarni qo'llash tizimini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifat ko'rsatkichlaridagi agrokimyoviy tahlil yo'nalishlarini tadqiq etish sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish sohasida:

tuproqlarning agrokimyoviy holatini uchuvchisiz qurilmalar orqali spektral tahlillar o'tkazishdagi xorijiy tajribalarini o'rganadi, samarali deb topilgan usullarni mahalliy sharoitda qo'llash ustida izlanishlar olib boradi;

qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi rayonlashgan navlarining tuproqdan olib chiqib ketadigan oziqa moddalari miqdorlarini o'rganish va o'rnini qoplash me'yorlarini tadqiq etishda ishtirok etadi;

ekinlar yetishtirishdagi intensiv texnologiyalar, jumladan tomchilab sug'orishda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishning kompleks tizimini ishlab chiqishda ilmiy-tadqiqotlarda ishtirok etadi;

murakkab turdagi mineral o'g'itlardan foydalanish uslubini ishlab chiqadi, bunda mineral o'g'itlar tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalarni o'simlik va tuproq talabidan kelib chiqqan holda tabaqalashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib boriladi;

zamonaviy texnologiyalarga asoslanib agrokimyoviy tahlil fanini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

8) Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirishning samarali tizimini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich takomillashtirish, agrokimyoviy tahlil sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish sohasida:

agrokimyoviy tahlil sohasi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qiladi;

agrokimyoviy tahlil sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

ilg'or texnologiyalar, malakaviy va kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarni e'tiborga olgan holda kadrlarni tanlash mexanizmi va ish jarayonini tashkil etishni takomillashtiradi;

agrokimyoviy tahlil va raqamli agrokimyoviy texnologiyalari sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish bo'yicha seminarlar tashkil etadi;

agrokimyoviy tahlil sohasi axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashni, davlat organlari bilan samarali axborot hamkorligini tashkil etadi;

agrokimyoviy tahlil tizimida kuzatuvlarni real vaqt rejimida amalga oshirish bo'yicha "aqlli" operativ monitoring tizimlarini joriy etadi.

9) Agrokimyoviy tahlil sohasida ilg'or texnologiyalarni takomillashtirish va joriy etish, shuningdek, tajriba almashish va kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish sohasida:

agrokimyoviy sohasida yuqori natijalarga erishgan xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha ikki tomonlama bitimlar tuzadi, ularning faoliyatini o'rganish asosida zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikamizda joriy etish bo'yicha xorijiy ekspertlarni jalb qilish choralarini ko'radi;

xalqaro faoliyatda ishtirok etish, shu jumladan, Xalqaro tuproqshunoslik ittifoqi (IUSS) a'ziligiga kirish choralarini ko'radi va jahon kongresslarida ishtirok etishni ta'minlaydi va tegishli majburiyatlarni bajaradi;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi xorijiy turdosh muassasalar bilan tajriba almashadi;

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

10) Agrokimyoviy tahlil faoliyatini keng targ'ib qilish va aholi xabardorligini oshirish sohasida:

agrokimyoviy tahlil ma'lumotlari va ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan xizmatlar ro'yxatini o'z rasmiy veb-saytiga, shuningdek, boshqa ochiq ma'lumotlar portallariga joylashtirib boradi;

ommaviy axborot vositalari, yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalar xodimlari, agrokimyoviy tahlil sohasidagi yetakchi mutaxassislarni keng jalb qilgan holda uchrashuvlar, davra suhbatlari, ekspertlik va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etadi.

2-§ Markaziy apparatning vazifalari va funksiyalari

13. Markaziy apparatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hududiy agrokimyoviy tahlil markazlari bilan birgalikda Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlash;

agrokimyoviy tahlil sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Markaz faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hududiy agrokimyoviy tahlil markazlarining prognoz ko'rsatkichlarini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlarni, shuningdek, barcha yerdan foydalanuvchilarni tuproq-o'simlik-o'g'it tamoyili asosida agrokimyoviy tahlillar bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlash;

markaziy va tizimdagi hududiy laboratoriyalarni muntazam modernizatsiya qilib, jahon standartlari talablarga moslashtirib borilishini ta'minlash;

laboratoriyalarni milliy va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash, laboratoriya asbob-uskunalarini qiyoslash ko'rigidan o'tkazib borilishini va laboratoriya tahlillari uchun zarur bo'lgan reaktivlar hamda anjomlar bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

Markaziy apparat va hududiy markazlarning moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, sarf-xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish choralarini ko'rish;

agrokimyoviy tahlil sohasini takomillashtirish uchun grant va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, davlatlararo va xalqaro aloqalarni mustahkamlash bo'yicha xalqaro tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etishni ta'minlash;

kadrlarni tanlash, xodimlarning odob-axloq normalarini joy-joyiga qo'yish, Markaz xodimlarining ishga kirish va xizmatda ichki tartib-qoidalariga rioya qilishini, kadrlarning qayta tayyorlanishi hamda malakasi oshirilishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida Markaz faoliyatining dolzarb jihatlari, agrokimyoviy tahlil sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish masalalari yoritilishini ta'minlash;

markaziy apparat, hududiy markazlar faoliyati samaradorligi va natijadorligini tanqidiy tahlil qilish hamda tahlil natijalari asosida zarur choralar ko'rish;

markaziy apparat, hududiy markazlar faoliyatini tashkil etishning zamonaviy shakllari va usullarini tatbiq etish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha samarali ishlarni ta'minlash orqali aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni tashkil etish;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va Agentlikka kiritish.

14. Markaziy apparat o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

hududlarda agrokimyoviy tahlil ishlarini normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil qiladi, tahlil ishlarini sifati ustidan nazorat olib boradi;

hududiy markazlar tomonidan bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar reja-jadvalini ishlab chiqadi hamda bajarilishini monitoring qilib boradi;

hududlar kesimida bajarilgan agrokimyoviy tahlil ishlari asosida yaratilgan agrokimyoviy xaritanoma hamda ekin turlariga mos ravishda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabni umumlashtirish orqali yagona elektron bazaga joylashtiradi va tavsiyanomalar ishlab chiqib, yerdan foydalanuvchilarga yetkazadi;

markaziy va hududiy laboratoriyalardagi asbob-uskunalar hamda jihozlarni xatlovdan o'tkazib boradi hamda eskirgan asbob-uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash va jahon standartlariga javob beradigan yangi asbob-uskunalar bilan butlash choralari ko'radi;

markaziy va hududiy laboratoriyalardagi asbob-uskunalarni doimiy standart ko'rigidan o'tkazib, laboratoriya xodimlarining malakasini oshirish ishlarini tashkillashtiradi;

hududiy markazlar talabnomalariga muvofiq laboratoriyalar uchun zarur bo'lgan reaktivlar hamda anjomlar bilan ta'minlaydi, reaktivlar sarfini nazorat qiladi;

laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi va milliy hamda xalqaro akkreditatsiyadan o'tishini ta'minlaydi;

ko'rsatiladigan xizmatlar uchun sarf-xarajatlar hisob-kitobini ishlab chiqadi va ishlab chiqilgan kalkulyatsiyalarni tasdiqlash uchun Agentlikka taqdim etadi, xizmat ko'rsatish shartnomalar tuzadi hamda bajarilishini nazorat qiladi;

agrokimyoviy tahlil sohasida xorijiy investitsiyalar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari hamda texnik yordam fondlarini jalb qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, ulardan loyihalarni boshqarish tamoyillariga muvofiq samarali foydalanishni ta'minlaydi;

ijro intizomini mustahkamlash, kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish tadbirlarini amalga oshiradi;

Markaz tizimiga yosh iqtidorli kadrlarni jalb qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

Markaz va uning rahbariyati faoliyatining tashkiliy hamda axborot-tahliliy ta'minotini amalga oshiradi;

hududiy markazlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Agentlikning buyruqlarini bajarilishi ta'minlaydi;

hududiy markazlar faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va uslubiy nazoratni amalga oshiradi;

Markaz o'z vakolatiga tegishli tezkor, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, xo'jalik-ishlab chiqarish va boshqa masalalarni hal qiladi.

3-§ Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar agrokimyoviy tahlil markazlarining vazifalari va funksiyalari

15. Hududiy markazlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

markaziy apparat tomonidan yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarali bajarish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimlari bilan vakolatlari doirasida o‘zaro hamkorlikda ish olib borish hamda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash;

davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlarni, shuningdek, barcha yerdan foydalanuvchilarni agrokimyoviy tahlil, tuproqning oziqa moddalari bilan ta‘minlanganlik darajasi, ekin turlariga mos ravishda mineral o‘g‘itlarning ilmiy talabi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlash;

laboratoriyaning doimiy ish faoliyatini ta‘minlash, zarur bo‘lgan resurslar ta‘minotini amalga oshirish, laboratoriya xodimlarning tahlillar sifati bo‘yicha shaxsiy javobgarligini ta‘minlash;

tahlil ishlarida sarflangan reagentlar hisob-kitobini yuritish, mehnat va texnika xavfsizligini ta‘minlash;

hududiy markazlarning ish sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

xo‘jalik shartnomalari asosida agrokimyoviy tahlil xizmatlarini ko‘rsatish va tegishli ma‘lumotlar taqdim etish.

16. Hududiy markazlar o‘zlariga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradilar:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini, Agentlik va Markaz buyruqlari hamda topshiriqlarini bajaradi;

tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq hududdagi barcha sug‘oriladigan yer maydonlari tuproqlarining oziqa elementlari bilan ta‘minlanganlik darajasini tahlil qilib boradi va agrokimyoviy xaritanomalar ishlab chiqadi;

tuproqning oziqa moddalari bilan ta‘minlanganlik darajasiga muvofiq ekin turlariga mos ravishda mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ilmiy talabni ishlab chiqadi, ularni tabaqalashtirib kiritish tizimini belgilaydi va monitoringini yuritadi;

qishloq xo‘jaligiga yetkazib berilayotgan barcha turdagi mineral o‘g‘itlar sifatini tahlil qiladi va xulosalar beradi;

qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibidagi pestitsid, nitrat va og‘ir metall tuzlari qoldiq miqdorlarini tahlildan o‘tkazadi hamda xulosalar beradi;

nazorat va signal dalalarida radiologik-toksikologik kuzatuv nazorat ishlarini olib boradi, zararlangan maydonlar tuproqlari va o‘simliklaridagi zararlanish holatlarini kamaytirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar beradi;

markaziy apparatga laboratoriyalarni modernizatsiyalash va texnik jihozlash yuzasidan takliflar kiritadi;

foydalanilayotgan laboratoriya asbob-uskunalarini texnik holatining zarur darajasi va ishonchli ishlashini ta'minlaydi, ulardan texnik ko'rsatmalar asosida to'g'ri foydalanadi;

o'z vakolatiga tegishli tezkor, tashkiliy, xo'jalik, ishlab chiqarish va boshqa masalalarni hal qilish.

4-bob. Markazning huquqlari va javobgarligi

1-§ Markazning huquqlari va javobgarligi

17. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

Agentlikka normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda kiritish;

Markaz vakolatiga kiradigan masalalarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini belgilangan tartibda muvofiqlashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan Markaz vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur axborotni belgilangan tartibda so'rab olish;

davlat statistika organlaridan Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zarur statistika axborotini bepul olish;

Markaz va uning idoraviy mansub tuzilmalariga biriktirilgan davlat mulkini o'zining tashkiliy tuzilmasi doirasida bir bo'linmadan ikkinchisiga belgilangan tartibda o'tkazish;

agrokimyoviy tahlil sohasida Markaz xodimlari o'z faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari parametrlarini bajarishini hisobga olgan holda, ularni moddiy rag'batlantirish tartibi, miqdori va shartlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha idoralararo xususiyatga ega xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining agrokimyoviy tahlil sohasidagi islohotlarni amalga oshirish masalalarini ko'rib chiqish bilan bog'liq hay'at majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolarga agrokimyoviy tahlil sohasidagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi shart bo'lgan vazifalarni Agentlikka taqdim etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik talablarini bajarmagani yoki tegishli ravishda bajarmagani uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo'yicha takliflarni Agentlikka ko'rib chiqish uchun kiritish;

o'z vakolati doirasida normativ-huquqiy hujjatlar, zarur hollarda davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan birgalikda Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha belgilangan tartibda qo'shma qarorlar hamda boshqa hujjatlar qabul qilish;

o'z vakolati doirasida konferensiyalar, seminarlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish hamda ularni o'tkazish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan shunday tadbirlarda qatnashish;

ijtimoiy sheriklik doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini sohani rivojlantirish dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb qilish;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bitim hamda shartnomalar tuzish, qo'shma loyihalar va rejalar ishlab chiqish, qo'shma tadbirlar tashkil etishga qaratilgan maslahatlashuvlar hamda muzokaralar o'tkazish;

agrokimyoviy tahlil sohasida axborot-tahlil hamda ekspert ishlarini amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot, texnologik, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, olimlar va malakali mutaxassislarni, shu jumladan chet ellik olimlar hamda mutaxassislarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb etish;

xorijiy davlatlarning ushbu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi vazirliklari (idoralari), xalqaro moliya va iqtisodiyot tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, firma va kompaniyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy davlatlar elchixonalari va missiyalari, xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar bilan majlislar va videokonferensiyalar o'tkazish;

agrokimyoviy tahlil sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'mitalar va komissiyalar ishida ishtirok etish;

xorijiy davlatlarning agrokimyoviy tahlil sohasidagi tashkilotlari, idoralari, agentliklari va boshqa turdosh tuzilmalari bilan Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq idoralararo shartnomalar (bitimlar, protokollar, memorandumlar) tayyorlash hamda tuzishda ishtirok etish;

markaziy apparat va hududiy markazlar moddiy-texnika bazasini yaxshilash choralari ko'rish;

Markaz qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Markaz quyidagilar uchun mas'ul:

Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, shuningdek, agrokimyoviy tahlil sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi ta'minlash;

agrokimyoviy tahlil bo'yicha barcha tadbirlarning o'tkazilishi, bu boradagi zarur ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, qishloq xo'jaligi va boshqa o'simliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish va ulardan foydalanishda agrokimyoviy tahlil bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya

etilishi va tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishda ishtirok etish;

Markaz faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta‘minlash;

agrokimyoviy tahlil sohasini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va sohadagi muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning sifatli amalga oshirish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi hamda ularni himoya qilishni ta‘minlash.

2- § Markaziy apparatning huquqlari va javobgarligi

19. Markaziy apparat o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududiy markazlardan markaziy apparatda ko‘rib chiqiladigan masalalarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tahlil qilish hamda ishlab chiqish uchun zarur materiallar va ma‘lumotlarni so‘rab olish;

zarur bo‘lganda, markaziy apparatda ko‘rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun hududiy markazlar boshliqlari va mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb qilish, ushbu maqsadlarda ekspert hamda ishchi guruhlar tashkil etish;

hududiy markazlardan ular kiritgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda boshqa hujjatlar loyihalarini puxta ishlab chiqishni talab qilish, zarur bo‘lganda ularni mukammal tayyorlash uchun qaytarish;

hududiy markazlar rahbarlari hamda vakillari bilan majlislar o‘tkazish;

hududiy markazlarga yuklangan hamda tezkor hal etishni talab etadigan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

hududiy markazlarning qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari, shuningdek, Agentlik rahbariyati hujjatlari va topshiriqlarini bajarish bo‘yicha faoliyatini o‘rganish hamda tekshirish;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi bilan bog‘liq materiallarni vakolatli organlar va huquqni muhofaza qilish organlariga belgilangan tartibda yuborish;

hududiy markazlar rahbarlarini lavozimga tayinlash hamda lavozimdan ozod etish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqish;

kasb faoliyatida yuqori natijalarga erishgan agrokimyoviy tahlil sohasi xodimlarini belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etish;

markaziy apparat qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

20. Markaziy apparati quyidagilar uchun javobgar:

hududiy markazlar bilan birgalikda Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida samarali bajarilishi, markaziy apparat bo'linmalari ishini tashkil etish, Markaz faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash;

tuproq agrokimyoviy holatini nazorat qilish va yaxshilash, mineral o'g'itlardan ilmiy talab asosida tabaqalashtirilgan holda foydalanishni tartibga solish, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsidlar, nitrat va og'ir metall tuzlari qoldiqlarining belgilangan me'yorlardan oshib ketmasligini nazorat qilish tadbirlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi;

markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarining Markaz faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash ishlarini tashkil etish;

Markaz tomonidan Agentlikka ko'rib chiqish uchun kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar hamda boshqa hujjatlar loyihalari, shuningdek, Markaz qabul qiladigan qarorlarni tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish;

markaziy apparat va hududiy markazlar tomonidan agrokimyoviy tahlil sohasini tartibga solish, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ularning agrokimyoviy tahlil sohasidagi muammoli masalalarini hal etish bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlar amalga oshirilishini tashkil etish;

Markaz xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, mehnat qobiliyatini va sog'lig'ini yo'qotganligi uchun xodimlarga belgilangan tartibda zararni qoplash;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va ularni himoya qilishni ta'minlash;

agrokimyoviy tahlil bo'yicha barcha tadbirlarning o'tkazilishi, bu boradagi zarur ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, qishloq xo'jaligi hamda boshqa o'simliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish va ulardan foydalanishda agrokimyoviy tahlil bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishda ishtirok etish;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlaydi;

agrokimyoviy tahlil sohasida tarif siyosatini va ko'rsatiladigan xizmatlarni hisobga olish tizimini takomillashtirish;

markaziy apparat va hududiy markazlarning kadrlar salohiyatini shakllantirish.

3-§ Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy agrokimyoviy tahlil markazlarining huquqlari va javobgarligi

21. Hududiy markazlar o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan Markazlar vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur axborotni belgilangan tartibda so'rab olish;

hududiy markazlar vakolatiga kiradigan sohadagi muhim muammolarni ko'rib chiqish bo'yicha idoralararo komissiyalar va kengashlarni hududiy darajada tashkil etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga hududiy markazlar vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun kiritish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi hududiy organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining agrokimyoviy tahlil sohasida islohotlarni amalga oshirish masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi hududiy organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga agrokimyoviy tahlil sohasidagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomalarni belgilangan tartibda yuborish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi hududiy organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlarini agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik talablarini bajarmagani yoki tegishli ravishda bajarmagani uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo'yicha takliflarni Markaziy apparatga ko'rib chiqish uchun kiritish;

Markazning texnik kengashi ishlarida ishtirok etish;

Markaz topshirig'iga binoan agrokimyoviy tahlil sohasidagi masalalar bo'yicha majlislar va seminarlar tashkil etish hamda o'tkazish;

hududiy markazlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilashga doir takliflar kiritish;

hududiy markazlar vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan da'vogar va javobgar bo'lish;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi bilan bog'liq materiallarni vakolatli organlar va huquqni muhofaza qilish organlariga belgilangan tartibda yuborish;

hududiy markazlar rahbarlari va xodimlarining malakasini oshirish kurslarini tashkil etishga ko'maklashish;

agrokimyoviy tahlil sohasiga iqtidorli kadrlarni jalb etish.

Hududiy markazlar qonunchilikka binoan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

22. Hududiy markazlar quyidagilar uchun javobgar:

yuklangan vazifalar hamda funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

tuproq agrokimyoviy holatini tahlil qilish va yaxshilash, mineral o'g'itlardan ilmiy talab asosida tabaqalashtirilgan holda foydalanishni tartibga solish,

yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsidlar, nitrat va og'ir metall tuzlari qoldiqlarining belgilangan me'yorlardan oshib ketmasligini tahlil qilish tadbirlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi;

agrokimyoviy tahlil bo'yicha barcha tadbirlarning o'tkazilishi, bu boradagi zarur ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, qishloq xo'jaligi va boshqa o'simliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish hamda ulardan foydalanishda agrokimyoviy tahlil bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya etilishi va tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishda ishtirok etish;

hududiy markazlar faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash;

markaziy apparatga kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflarni ishlab chiqish sifati, shuningdek, hududiy markazlar qabul qiladigan buyruqlar sifati, ularning yakuniy natijalari hamda amalga oshirish oqibatlariga;

tumanlarda (shaharlar) aniqlangan muammolarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda agrokimyoviy tahlil sohasini rivojlantirishga doir takliflar tayyorlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda agrokimyoviy tahlil sohasini rivojlantirish, muammoli masalalarni hal etish bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, "yo'l xaritalari" hamda boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va ularni himoya qilishni ta'minlash;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash, uni buzish holatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va o'z vakolati doirasida tegishli choralar ko'rish.

5-bob. Markaz rahbarlarining asosiy funksional vazifalari

23. Quyidagilar Markaz direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Markaz faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari, Agentlik buyruqlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

Markaz, shuningdek, uning hududiy markazlar faoliyatiga tegishli prognoz ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishini tashkil etish va amalga oshirish;

o'z o'rinbosarlarining vakolatlarini belgilash, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash, Markazning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, o'z o'rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning Markaz faoliyatining alohida qismlariga rahbarlik qilishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyati darajalarini belgilash;

Markaz faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, uzoq muddatli va joriy ish rejalarini, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish prognozlarini tasdiqlash, ularning bajarilishini nazorat qilishni ta'minlash;

Markaz tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Markazning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini yuqori sifatli ishlab chiqishni tashkil etish, ularni Agentlikka o'z vaqtida "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash tartibi va ularni Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining reglamenti va Vazirlar Mahkamasining reglamenti talablariga muvofiq ravishda taqdim etish, ularni Vazirlar Mahkamasida ishlab chiqishda, Vazirlar Mahkamasi Rahbariyati oldida himoya qilishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko'rib chiqishda ishtirok etish;

Markaz qonunchilik faoliyatini tegishli qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda tashkil etish;

Markaz vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha buyruqlar, ko'rsatmalar chiqarish va normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, zarur hollarda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlarni qabul qilish;

Markaz rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini belgilangan qonunchilik talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish hamda tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli hamda oqilona foydalanishni ta'minlash;

Markaz xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish;

Agentlik bilan kelishilgan holda, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida pulli xizmat ko'rsatish narxlarini belgilash;

xodimlarga imtiyozlar, moddiy rag'batlantirishlar, mukofotlash, belgilangan tartibda ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltiriladigan xarajatlarni belgilash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnatga haq to'lash, moddiy yordam va ustamalar belgilash;

Markaz xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Markaz tizimida korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, huquq amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish yo'li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

davlat xizmatlari ko'rsatish samaradorligi va sifatini, ulardan foydalanish imkoniyatlarini, jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni

amalga oshirishda “yagona darcha” tamoyilini joriy etish orqali yaxshilash va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va tegishli qonunosti hujjatlarga muvofiq samarali tashkil etish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o‘rnatish, shaxsiy qabullarni muntazam ravishda o‘tkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida Markaz xodimlari va rahbarlarining faol ishtirok etishini tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini ta‘minlash;

agrokimyoviy tahlil sohasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini davlatlararo kengashlarda belgilangan tartibda ifodalash, xalqaro hamkorlik rejalarini tasdiqlash;

ekspeditsiya va xizmat safarlarining rejaları, shuningdek, markaziy apparat va hududiy markazlarning shtatlar jadvali hamda xarajatlar smetasini tasdiqlash;

markaziy apparat xodimlari, hududiy markazlar rahbarlari va ishchi xodimlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish hamda ular bilan mehnat shartnomasini bekor qilish;

o‘z vakolatlari doirasida Markaz tizimi xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish;

fuqaro muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

agrokimyoviy tahlil sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlash;

agrokimyoviy tahlil sohasida kadrlar tayyorlash, soha xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

agrokimyoviy tahlil sohasidagi xodimlar va mutaxassislarni uzoq muddatli va samarali ishlanganligi va xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlashga taqdim etish.

Direktor qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksional vazifalariga ham ega bo‘lishi mumkin.

24. Quyidagilar Markaz direktori o‘rinbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Markaz direktori vaqtincha bo‘lmaganda tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Markazning o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish, bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari ijrosini ta'minlash, o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, tegishli qonunchilik hujjatlariga muvofiq tarkibiy bo'linma rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

Markaz direktorining buyruq va topshiriqlari o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

xizmat safarlarini tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash.

25. Quyidagilar markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

tegishli bo'linma faoliyatiga bevosita rahbarlikni amalga oshirish, ushbu bo'linmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

o'z vakolatlari doirasida hududiy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda hududiy markazlarning ushbu ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha takliflarini Markaz direktorining tegishli o'rinbosarlariga kiritish;

Markaz direktori va uning o'rinbosarlarining buyruq hamda topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

tarkibiy bo'linmalarning har choraklik ish rejaları ishlab chiqilishini, ularning tasdiqlash uchun kiritilishini, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarning o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

tarkibiy bo'linmalar faoliyatiga oid masalalar yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish uchun Markaz rahbariyatiga kiritish;

xizmat safarlarini tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli hamda oqilona foydalanishni ta'minlash;

Markaz tomonidan tasdiqlangan Markaz xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etish, tarkibiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda tegishli qonunosti hujjatlarga muvofiq ko‘rib chiqish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o‘rnatish, shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda o‘tkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirish.

26. Quyidagilar hududiy markazlar rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

hududiy markazlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, hududiy markazlarga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish, shuningdek, hududiy markazlarning oylik va choraklik ish rejalarini tasdiqlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

hududiy markazlar faoliyatiga tegishli prognoz ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishni ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

hududiy markazlar tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

Markaz direktori va uning o‘rinbosarlarining buyruq hamda topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

Markaz faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

o‘z o‘rinbosarining vakolatlarini belgilash, vazifalarni taqsimlash, hududiy bo‘linmalarning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, o‘z o‘rinbosari va boshqa mansabdor shaxslarning hududiy bo‘linmalar faoliyatining alohida qismlariga rahbarlik qilishi uchun ularning shaxsiy mas’uliyati darajalarini belgilash;

hududiy markazlar xodimlarining samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududiy markazlarning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Markaz rahbariyatiga hududiy markazlar xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish to‘g‘risida takliflar kiritish;

hududiy markazlar xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq hududiy markazlarda korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish yo‘li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

hududiy markazlar xodimlarining faoliyati samaradorligi hamda natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, majlislarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, yakuniy natijalar bo'yicha zarur choralar ko'rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda tegishli qonunosti hujjatlarga muvofiq ko'rib chiqish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o'rnatish, shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda o'tkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatlarda hamda tartibda amalga oshirish;

agrokimyoviy tahlil ishlarini bajarishda hududiy markazlar xodimlarining xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari va mehnatni muhofaza qilish holati uchun javobgarlik;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son Farmoniga muvofiq ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash.

6-bob. Markaz rahbarlarining javobgarligi

27. Markaz direktori:

Markazga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi; ushbu Ustavning 20-bandida ko'rsatilgan o'z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

28. Direktor o'rinbosarlari:

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarda Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Ustavning 24-bandida ko'rsatilgan o'z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

29. Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari:

tegishli tarkibiy bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi; ushbu Ustavning 26-bandida ko'rsatilgan o'z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

30. Hududiy markazlar rahbarlari:

hududiy markazlarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi; ushbu Ustavning 21-bandida nazarda tutilgan hududiy markazlarning javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Ustavning 22-bandida ko'rsatilgan o'z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

7-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish

1-§. Markaz rahbariyati

31. Markazning umumiy faoliyatiga Markaz direktori rahbarlik qiladi. Markaz direktori Agentlik bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

32. Markaz direktori Markaz faoliyatini muvofiqlashtiradi, unga yuklangan vazifalarni amalga oshiradi hamda faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Markaz direktori Markaz va uning mintaqaviy filiallarining shtatlar jadvalini Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.

Markaz direktori Markaz nomidan unga berilgan huquqlar asosida faoliyatni amalga oshiradi.

33. Markaz direktorining ikki nafar o'rinbosari bo'ladi.

Markaz direktorining o'rinbosarlari Agentlik bilan kelishgan holda Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

34. Direktor bo'lmagan vaqtda uning vakolatlari Agentlik bosh direktorining buyrug'iga asosan uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

35. Markaz direktori o'z vakolatlari doirasida:

Markaz faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Markaz nomidan shartnomalar va bitimlar tuzadi, ushbu vazifalarni bajarish uchun ishonchnomalar beradi;

Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, taqdim etiladigan tahliliy materiallar hamda hujjatlarning to'liqligi uchun shaxsan javob beradi;

Hududiy markazlar, tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, xodimlar o'rtasida funksional vazifalarni taqsimlaydi va yuklangan topshiriqlar bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik darajasini belgilaydi;

Markaz nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi;

belgilangan tartibda Markaz xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

Markaz xodimlarining lavozim maoshlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ustamalar belgilaydi;

Markaz faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan buyruq, yo'riqnoma va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;

xodimlarning lavozim majburiyatlari va ichki tartib-qoidalarini tasdiqlaydi;

xodimlar mehnatiga qo'shimcha haq to'lash miqdorini belgilaydi, xodimlarni rag'batlantiradi hamda intizomiy jazolar tayinlaydi;

Markaz nomidan sudga da'volar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Direktor qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarga ham ega bo'lishi mumkin.

36. Quyidagilar Markaz direktori o'rinbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Markaz direktori vaqtincha bo'lmaganda tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Markazning o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish, bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tarkibiy bo'linma rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

Markaz direktorining buyruq va topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

xizmat safarlarini tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli hamda oqilona foydalanishni ta'minlash.

2-§. Markaziy apparatning tarkibiy bo'linmalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy agrokimyoviy tahlil markazlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

37. Markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarining hududiy markazlar bilan o'zaro hamkorligi markaziy apparat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari tomonidan ta'minlanadi.

38. Markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari hududiy markazlar bilan o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik qilib:

topshiriqlarni hududiy markazlarga yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

hududiy markazlarga tarkibiy bo'linmalarning bevosita faoliyati masalalari bo'yicha so'rovlar yuboradi hamda ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

hududiy markazlar faoliyatini amaliyotini tekshiradi va o'rganadi, umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

hududiy markazlar faoliyatini tashkil etish va faoliyati natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar o'rganilishini tashkil etadi;

hududiy markazlar ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ko‘radi;

hududiy markazlardan tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi.

39. Hududiy markazlar markaziy apparatning tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlik qiladi, shu jumladan:

Markaz rahbariyati topshiriqlari ijrosi haqida axborot beradi;

ularning faoliyatini tekshirish va o‘rganish natijasida aniqlangan ishdagi kamchiliklarni hamda qoidabuzarliklarni bartaraf etish natijalari to‘g‘risida ma‘lumot beradi;

o‘z ishi natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda markaziy apparatga taqdim etadi;

vakolatli organlar tomonidan o‘tkazilgan o‘z faoliyatini tekshirish natijalari to‘g‘risida xabar beradi.

40. Markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari bilan hududiy markazlarning o‘zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar Markaz direktorining topshirig‘iga binoan uning tegishli o‘rinbosari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Agar ko‘rsatib o‘tilgan kelishmovchiliklar ko‘rib chiqishdan keyin tartibga solinmasa, u bo‘yicha qaror bevosita Markaz direktori tomonidan qabul qilinadi.

3-§. Markazning boshqa davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

41. Markaz o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda Agentlik, davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

42. Hududiy markazlar o‘z vakolatlari doirasida boshqa davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy bo‘linmalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Hududiy markazlar tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqishda va amalga oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan o‘zaro yaqin hamkorlik qiladi.

8-bob. Markazning Texnik kengashi

43. Markazda direktor (kengash raisi), uning o‘rinbosarlari (lavozimi bo‘yicha), shuningdek, hududiy markazlar rahbarlari, Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va agrokimyoviy tahlil sohasi olim va fahriylaridan iborat tarkibda texnik kengash tuziladi.

Kengash tarkibining soni va shaxsiy tarkibi Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

44. Kengashga quyidagi vazifalar yuklanadi:

ushbu Ustavda belgilangan Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

qonunchilik hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida belgilangan vazifalar o'z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Markaz tizimi xodimlari va rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rgan holda tarkibiy va hududiy markazlar rahbarlari hisobotlari muntazam ravishda eshutilishini tashkil etish;

Markaz faoliyati sohasidagi davlat dasturlari hamda tarmoq va hududiy dasturlar amalga oshirilishining natijadorligini har chorakda va muntazam ko'rib chiqish;

joylarda Markaz faoliyatining dolzarb masalalari muhokama qilinishini ta'minlagan holda Kengashning kengaytirilgan sayyor majlislari o'tkazilishini tashkil etish va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli qarorlar ishlab chiqish hamda qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda topshiriqlari bilan belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun Markaz rahbarlari hamda xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash va shaxsiy javobgarligini oshirish.

45. Kengash majlisiga Markaz vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, boshqa tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Kengash, agar uning majlisida Kengash tarkibining yarmidan ko'pi qatnasha, vakolatli hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar oddiy ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Kengash qarorlari Markaz direktorining buyruqlari va farmoyishlari bilan amalga oshiriladi.

Markaz direktori va Kengash a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Markaz direktori yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqida Agentlikka axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Shuningdek, Kengash a'zolari ham Agentlikka o'z fikrini ma'lum qilishi mumkin.

Kengash faoliyati tartibi Kengash tomonidan tasdiqlanadigan uning reglamenti bilan belgilanadi.

9-bob. Mulkiy va moliyaviy munosabatlar

46. Markaz mulki davlat mulki hisoblanadi va uning balansida aks ettiriladi.

47. Markaz o'ziga biriktirilgan mulkdan Agentlik talablari va o'z maqsadlarini amalga oshirishda amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida foydalanadi.

48. Markaz o'zining ko'chmas va ko'char mulkiga, pul mablag'lariga, shu jumladan chet el valyutasidagi pul mablag'lari hamda boshqa mol-mulkiga ega bo'lishi mumkin.

49. Qonun hujjatlari bilan muomala qilinishi taqiqlanmagan har qanday mulklar Markaz tomonidan egalik qilinishi mumkin.

10-bob. Markazni moliyalashtirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish

50. Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasidan (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) ajratilgan mablag'lar;

xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy tashkilotlarning grantlari;

ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasidagi grant mablag'lari;

ko'rsatilayotgan xizmatlardan tushgan tushumlar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

51. Markazning ko'rsatiladigan xizmatlaridan oladigan daromadlaridan belgilangan tartibda O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

52. Markaz va uning hududiy agrokimyoviy tahlil markazlarini moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek, mehnatga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga har yili ajratiladigan mablag'lar va budjetdan tashqari jamg'armalar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Markaz va uning hududiy markazlari xodimlari uchun davlat boshqaruvi organlari xodimlariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishning amaldagi shartlari tatbiq etiladi.

53. Markaz va uning hududiy markazlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi, ko'rsatiladigan xizmatlardan tushadigan tushumlar, budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

11-bob. Hisob va hisobot

54. Markaz moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha moliyaviy hisobotlar, statistik, buxgalteriya hisobotlarini o'z vaqtida va belgilangan tartibda tayyorlaydi, shuningdek, Agentlikka hamda qonun hujjatlariga asosan boshqa organlarga yuboradi.

12-bob. Yakuniy qoida

55. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

B. Ilyuzing'ulov

[Signature]